

“Fizika va kimyo” kafedrasida fanlar bo'yicha 1-tur olimpiadasi o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 5-apreldagi «Oliy ta'lif muassasalari talabalari respublika fan olimpiadasini 2019-yilda tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi № 314-sonli buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida, “Gidromelioratsiya” fakulteti “Fizika va kimyo” kafedrasida kafedra mudiri I.B. Sapaev boshchiligidagi 2021-yil 21-aprel kuni fizika va kimyo fanlari bo'yicha talabalarning 1-tur olimpiadasi o'tkazildi. Olimpiadada barcha fakul'tetlardan saralab olingan iqtidorli talabalar qatnashib to'plagan ballari natijasiga ko'ra Respublika bosqichiga yo'llanma olishdi.



Ya'ni: fizika fanidan TJIChAB 103-guruh talabasi Raxmatova Iroda 80 ball bilan, kimyo fanidan esa “QXMS va DIT 109-guruh talabasi Anvarova Feruza 76 ball bilan 1- o'rinni egallashdi. Bu iqtidorli talabalarimizga Respublika bosqichida ham o'z bilimi va iqtidoriga ishongan holda nufuzli o'rnlarni egallashlarida omad tilab qolamiz.

Katta o'qituvchi Z.F. Beknazarova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati